





“Mening holatimni tekshirish” interaktiv xizmati bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha QO‘LLANMA

-  - soliq xavfining **yuqori darajasiga** ega soliq to‘lovchi;
-  - soliq xavfining **past darajasiga** ega soliq to‘lovchi.
- **belgi qo‘yilmagan mezon** bo‘yicha xavf darajasini aniqlash yuzasidan avtomatlashtirish ishlari olib borilmoqda.


Soliq xavfining **yuqori** darajasiga ajratilgan soliq to‘lovchilarning **QQS to‘lovchisi** sifatida maxsus ro‘yxatdan o‘tish uchun taqdim etgan arizasi **rad qilinishi** yoki mavjud **QQS guvohnomalar** ushbu kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar **vaqtincha to‘xtatilishi** belgilanmoqda.

Quyidagi holatlarning loaqal bittasi aniqlanganda soliq to‘lovchilar **solliq xavfining yuqori darajasiga** ajratiladi va ushbu  belgi qo‘yiladi.


1. Rahbarning yoki rahbarlik vazifalarini yoki moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan shaxsning shaxsi aniqlanmasa, yoxud arizada ko‘rsatilgan shaxslar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari Yagona milliy mehnat tizimida tasdiqlanmaganda;

 *O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining my.mehnat.uz sayti orqali yuridik shaxsning rahbari yoki buxgalteri bilan tuzilgan mehnat shartnomalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish talab etiladi.*


2. Ta‘sischi to‘g‘risida ma‘lumotlar soliq organining ma‘lumotlar bazasida mavjud bo‘lmaganda;

 *Davlat xizmatlari agentligining filiallariga tashrif buyurgan holda yuridik shaxsning ta‘sischilari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarini to‘g‘rilash mumkin. Shuningdek, xizmat ko‘rsatuvchi soliq organiga ushbu ma‘lumotlarni taqdim etish orqali ham kamchiliklarni to‘g‘rilash mumkin.*

3. Soliq to‘lovchi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan manzilda mavjud bo‘lmaganda;

 *Yuridik shaxs xizmat ko‘rsatuvchi soliq organiga yoki kadastr agentligining hududiy bo‘limlariga ko‘chmas mulki to‘g‘risidagi hujjatlarni taqdim etish orqali ma‘lumotlarni to‘g‘rilash mumkin.*

4. O‘z ko‘chmas mulkiga ega bo‘lmay turib ijaraga olingan yoki tekin foydalanilayotgan ko‘chmas mulki bo‘lmaganda;

 *Yuridik shaxs xizmat ko‘rsatuvchi soliq organiga ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha tuzilgan ijara shartnomasi hujjatlarni taqdim etish va EHF rasmiylashtirilishi orqali ma‘lumotlarni to‘g‘rilash mumkin.*

5. Soliq to‘lovchining manzili manzil-ma‘lumot byurosi ma‘lumotlari bazasida mavjud bo‘lmaganda;

Ushbu mezon bo‘yicha avtomatlashtirish ishlari olib borilmoqda.

6. Soliq to‘lovchining manzili nominal joylashgan joy manzili bilan to‘g‘ri kelganda;

Ushbu mezon bo'yicha avtomatlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bir nechta yuridik shaxslar bir manzilda 18 kv.mdan kam bo'lmagan obyektida faoliyat yuritayotgan bo'lishi lozim.

7. Elektron hisob-varaq fakturalar ma'lumoti asosida soliq to'lovchining kirim va chiqim operatsiyalarida tovarlar nomutanosibliği aniqlanganda;

✔ *Soliq to'lovchi tomonidan haqiqatda olingan tovarlar kirim va chiqim hujjatlari xizmat ko'rsatuvchi soliq organiga taqdim etish orqali o'rganib chiqiladi va soliq organi xulosasi bilan kamchilik bartaraf etiladi.*

8. Soliq hisobotlari taqdim etilmaganda;

✔ *Qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, ijtimoiy soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha hisobotlar taqdim etish muddati o'tib ketgan davrlar uchun hisob-kitoblarni taqdim etish orqali bartaraf etiladi.*

9. Ariza taqdim etilgan paytda soliq to'lovchining soliq qarzi mavjud bo'lganda, shuningdek, ulushi 50 foiz va undan ko'p bo'lgan ta'sischilarining boshqa yuridik shaxslarida soliq qarzi mavjud bo'lganda;

✔ *Soliq to'lovchi yoki uning ta'sischilari tashkil etgan boshqa yuridik shaxslar tomonidan ikki oydan ortiq vaqt davomida qo'shilgan qiymat solig'idan to'lanmagan qarzdorlikni budjetga to'lash orqali bartaraf etiladi.*

10. Soliq to'lovchiga soliq qarzi mavjud yoki soliq xavfi yuqori bo'lgan korxonaga qo'shilganda;

✔ *Soliq to'lovchi tomonidan ikki oydan ortiq vaqt davomida qo'shilgan qiymat solig'idan to'lanmagan qarzdorlikni budjetga to'lash orqali bartaraf etiladi.*


11. Korxonaga rahbari bir vaqtning o'zida boshqa korxonada rahbar bo'lib, ushbu korxonada soliq qarzi mavjud bo'lganda yoxud soliq hisobotlarini taqdim etmaganda;

✔ *Rahbarning boshqa korxonalari tomonidan ikki oydan ortiq vaqt davomida qo'shilgan qiymat solig'idan to'lanmagan qarzdorligini budjetga to'lash va soliq hisobotlarini taqdim etish orqali bartaraf etiladi.*

12. Muqaddam bankrot deb e'lon qilingan tashkilotda rahbar yoki ta'sischi bo'lgan va muqaddam soliq to'lashdan qasddan bo'yin tovlaganlik uchun rahbar yoki ta'sischi sifatida javobgarlikka tortilgan shaxs tomonidan rahbarlik yoki ta'sischi amalga oshirilganda (mazkur talab ta'sischi ulushi 50 % va undan ortiq bo'lganda inobatga olinadi);

✔ *Muqaddam rahbar yoki ta'sischi bo'lgan tashkilotda Soliq kodeksida belgilangan soliq majburiyatlarini bajarish orqali bartaraf qilinadi. (Soliq qarzini to'lash, soliq hisobotlarini taqdim etish va hokazo.)*

13. Yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub bo'lgan va soliq to'lashdan qasddan bo'yin tovlaganlik uchun javobgarlikka tortilgan rahbar yoki ta'sischi tomonidan rahbarlik yoki ta'sischi amalga oshirilganda (mazkur talab ta'sischi ulushi 50 % va undan ortiq bo'lganda inobatga olinadi).

 *Muqaddam rahbar yoki ta'asischi bo'lgan tashkilotda Soliq kodeksida belgilangan soliq majburiyatlarini bajarish orqali bartaraf qilinadi. (Soliq qarzini to'lash, soliq hisobotlarini taqdim etish va hokazo.)*

Mazkur xizmatdan foydalanish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan savollar tug'ilganda ushbu ro'yxatdagi (<https://soliq.uz/storage/files/September2021/e4e480827bf21b4d017c02cf5d660004.xlsx>) mas'ul xodimlarga murojaat qilishingiz mumkin.